

## **“Prezident maktablari undagi muhit, metodika boshqa maktablarga ham olib kiriladi”**

Mamlakat taraqqiyoti ko‘p jihatdan iste’dodli bolalarni saralash, ularga to‘g‘ri yo‘nalish berish, qobiliyatini rivojlantirish, intellektual salohiyatini namoyon etishga ko‘mak bera oladigan ta’lim tizimini yaratishga bog‘liq.

Prezidentimiz 2018-yili Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi chog‘ida “Mamlakatimizni yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarishni o‘z oldimizga ustuvor vazifa qilib qo‘ygan ekanmiz, buni amalga oshirish uchun bizga, eng avvalo, yangi avlod kadrlari kerak”, degan edi. Ana shunday ezgu niyat va maqsadlar natijasi sifatida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi. Bu maktablarni soha mutaxassislari va ekspertlar mamlakat ta’lim tizimi lokomotivi deb baholamoqda.

Kuni kecha Prezidentimiz raisligida maktablarda ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini takomillashtirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ixtisoslashtirilgan maktablar qamrovini kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish masalalari jiddiy muhokama qilindi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilarning qabul qilinishi, mazkur jarayonni tubdan takomillashtirish, xalqaro standartlar talabiga javob beradigan o‘quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘qituvchilar malakasini xalqaro standartlar asosida oshirish, xalqaro sertifikatlash tizimi, o‘qituvchilarni ishga qabul qilishda saralash jarayonini tanlov asosida o‘tkazish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tildi.

Ushbu vazifalar ijrosi yuzasidan doimiy ishchi guruh tuzish belgilandi. U yurtimizdagи 790 ta maktabni Prezident ta’lim muassasalari agentligiga o‘tkazish uchun mavjud holatni o‘rganadi. Xususan, maktablar binosi, quvvati, malakali pedagog-kadrlar bilan ta’minlangani, mikrohududga biriktirilgani kabi masalalar ishchi guruh tomonidan o‘rganilib, xulosa va takliflar taqdim etiladi.

2019-yilda yurtimizda 271 ta ixtisoslashtirilgan maktab bor edi. Prezidentimizning aniq fanlar va xorijiy tillarni o‘rgatishga oid tashabbusi, qabul qilgan qarorlari natijasida matematika va fizika fanlari bo‘yicha 126 ta, kimyo-biologiya bo‘yicha 87 ta, axborot texnologiyalari yo‘nalishida 99 ta, xorijiy tillar bo‘yicha 207 ta ixtisoslashtirilgan maktab tashkil qilindi. Birgina Prezident ta’lim muassasalari agentligi qoshida bugun 14 ta Prezident maktabi, 3 ta ixtisoslashgan, 9 ta ijod maktabi faoliyat yuritmoqda.

Davlatimiz rahbari yig‘ilishda “Bu agentlikni faqat 14 ta maktab uchun tuzganimiz yo‘q. U Prezident maktablaridagi muhitni, metodikani boshqa maktablarga ham olib kirishi kerak”, dedi. Shu bois, yangi o‘quv yildan boshlab, viloyat markazlaridan, yirik shahar va tumanlardan ikkitadan, kichik tuman va shaharlardan bittadan ixtisoslashgan maktab Xalq ta’limi vazirligidan Prezident ta’lim muassasalari agentligiga o‘tkazilishi va agentlik tizimida faoliyat olib borayotgan ixtisoslashtirilgan maktablar yurtimizdagi boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar uchun lokomotiv vazifasini bajarishi belgilab berildi. Bunda maxsus ishchi guruh tomonidan hozirgi mavjud holat to‘liq o‘rganiladi va ularning tavsiyasi hamda xulosasi asosida ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichmabosqich agentlik tasarrufiga o‘tkaziladi.

Bu maktablarda muayyan fanlar ixtisoslashtirilgan holda chuqur o‘qitiladi. O‘quv ishlari ham nazariy, ham amaliy jihatdan uyg‘un olib boriladi. Bu esa yurtimiz uchun sohaning yetuk

mutaxassislari, ilm-fanni yuksaltirishga hissa qo'shadigan iqtidorli olimlar yetishib chiqishiga xizmat qiladi.

Ta'lim darajasi, avvalo, o'qituvchining bilimi va malakasiga bog'liq. Shu bois, ixtisoslashtirilgan maktablarga rahbar va pedagoglar ikki bosqichli tanlov asosida qabul qilinadi. Yig'ilishda Prezident ta'lim muassasalari agentligiga ushbu tizim asosida yuqori malakali o'qituvchilarni jamlab, qo'shimcha o'qitish, milliy va xalqaro sertifikatlar olishiga ko'maklashish topshirildi.

Agentlikning Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi negizida ilmiy markaz tashkil etish vazifasi berildi. U ixtisoslashtirilgan maktablarning har bir yo'nalishi bo'yicha xalqaro metodika asosida ilg'or ta'lim dasturlari ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. O'qituvchilarni ishga qabul qilish ikki bosqichli tanlov asosida bo'ladi. Birinchi bosqichda o'qituvchilarning bilim va mahorati sinovdan o'tkaziladi. Ikkinci bosqichda, yozgi ta'tilda ixtisoslashtirilgan maktablarda faoliyat olib boradigan pedagoglar uchun ikki haftalik kurslar tashkil etiladi. Ularga Prezident ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan mahalliy va xorijlik o'qituvchilar, agentlik tizimidagi uchta ixtisoslashtirilgan matabning trener o'qituvchilari jalb etiladi. Trening so'ngida sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan pedagoglar ishga qabul qilish uchun tavsiya etiladi.

Agentlik tomonidan xorij tajribasi o'rganilgan holda ixtisoslashtirilgan maktablar uchun integratsiyalashgan ta'lim dasturlari ishlab chiqildi. Biz bunda AQSH, Rossiya, Avstraliya singari davlatlarning ta'lim dasturlari, International Baccalaureate, SAT kabi imtihonlar, PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturlari mazmunini tahlil qilib, milliy ta'lim dasturining eng afzal tomonlari bilan uyg'unlashtirdik. Bugun mazkur ta'lim dasturlarini xalqaro darajada tan olish uchun UK NARIC xalqaro tashkiloti bilan muzokaralar olib boryapmiz. Mazkur dasturlar yangi tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarda joriy qilinadi.

Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar uchun Al-Xorazmiy maktabi lokomotiv vazifasini o'taydi. Mazkur maktab IT sohasiga yo'naltirilgan bo'lib, bu yerda matematika, informatika, fizika fanlari chuqurlashtirib o'qitiladi. Tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarga Abu Ali ibn Sino maktabi yetakchi bo'lib xizmat qiladi.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda chet tili va O'zbekiston tarixi fanini o'qitishga, o'quvchilarni, avvalo, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish ustuvor vazifamiz sanaladi. Buning uchun ixtisoslik fanlar bilan bir qatorda O'zbekiston tarixi fanini chuqur o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, farzandlarimizni jismonan yetuk va barkamol etib voyaga yetkazish maqsadida Milliy gvardiya bilan birgalikda ot sporti, kamondan o'q otish kabi milliy sport turlari bo'yicha turli tanlovlardan o'tkaziladi.

Agentligimiz Cambridge Assessment International Education bilan hamkorlikda Prezident maktablariga kirish imtihonlarini tashkil etadi. Ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul jarayonini esa agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi hamda Kembrij ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikda tashkil etish ko'zda tutilgan. Kirish imtihonlarida yo'nalishidan kelib chiqib, aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarga matematika, ingliz tili va mantiqiy fikrlash fanlaridan, tabiiy fanlar yo'nalishida esa biologiya, chet tili va mantiqiy fikrlash fanlaridan imtihon olinadi.

Ixtisoslashtirilgan maktablarga eng iqtidorli o'quvchilar qabul qilinadi. Mazkur maktablarda yangi baholash tizimi joriy etilmoqda. Yakuniy imtihonlar agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tomonidan markazlashgan holda tashkil etiladi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktablar uchun mo‘ljallangan ta’lim dasturlarini xalqaro darajada tan olish uchun tegishli tashkilotlarga taqdim etganimiz. Bu mazkur maktablar bitiruvchilarining xalqaro oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishida ustunlik beradi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim qamrovini kengaytirish o‘qitish tizimida yuksalishning yangi bosqichini boshlab beradi. Bunday muassasalarda bilim olgan yoshlар mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan yetuk kadrlar bo‘lib shakllanishi shubhasiz. Ta’lim sohasidagi dastlabki islohotlar o‘z natijasini bermoqda. Bularning barchasi xalq ta’limi sohasini rivojlantirish hamma vaqt davlat siyosatining ajralmas qismi bo‘lishi kerakligini ko‘rsatmoqda.

*Hilola Umarova,  
Prezident ta’lim muassasalari agentligiga direktori*

*“Yangi O‘zbekiston” gazetasi 12-son (19.01.2022)*